

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TERAPIYA VA TIBBIY
REABILITATSIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“REVMATOID ARTRIT”
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

Toshkent – 2025

«TASDIQLAYMAN»
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori t.f.d., professor
Sh.A.Boymuratov



**«REVMATOID ARTRIT» NOZOLOGIYASI
BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

Mundarija:

1.	Revmatoid artrit kasalligini tashxislash va davolash	5-bet
2.	Revmatoid artrit kasalligida tibbiy aralashuvlar	49-bet
3.	Revmatoid artrit kasalligi tibbiy profilaktikasi va reabilitatsiyasi	55-bet

**“REVMATOID ARTRIT” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
TASHXISLASH VA DAVOLASH
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

Toshkent – 2025

1. Kirish qismi.

Revmatoid artrit kasalligi dolzarbligini inobatga olib dalillarga asoslangan ma'lumotlar va tavsiyalarni tibbiyot xodimlariga taqdim etish, kasallikni erta tashxislash, oldini olish va davolash bo'yicha yagona yondashuv tizimini tashkil etish va tadbiq etish. Ushbu protokolni ishlab chiqish uchun Amerika revmatologlari kollegiyasi/Artrit Fondi (ACR, 2021), Yevropa antirevmatik ligasi (YeULAR, 2022), Rossiya revmatologlar uyushmasi (ARR, 2021) klinik ko'rsatmalari, Kokreyn kutubxonasi (Cochrane Library) va PubMed (MEDLINE) ma'lumotlari asos qilib olindi.

Halqaro kasalliklar klassifikatori – HKK(MKB)-10 kodi:

(M05- M06) Seropozitiv revmatoid artrit	
M05.0	Felti sindromi
M05.1	O'pkaning revmatoid kasalligi (j99.0)
M05.2	Revmatoid vaskulit
M05.3	Boshqa a'zo va tizimlarga tarqalgan revmatoid artrit
M05.8	Boshqa seropozitiv revmatoid artritlar
M05.9	Noaniq seropozitiv revmatoid artrit
M06 Boshqa revmatoid artritlar	
M06.0	Seronegativ revmatoid artrit
M06.1	kattalarda rivojlanadigan Still kasalligi
M06.2	Revmatoid bursit
M06.3	Revmatoid tugunlar
M06.4	Yallig'lanishli poliartropatiya
M06.8	Boshqa aniqlashtirilgan revmatoid artritlar
M06.9	Noaniq revmatoid artrit
Yuklab olish (HKK (MKB)dan havola)	https://mkb-10.com/index.php?pid=12105

MKB 11	
FA20 Revmatoid artrit	FA20.0 Eroziyali revmatoid artrit
FA20.00 Bo'g'imdan tashqari zararlanishsiz eroziyali revmatoid artrit	FA20.01 Splenomegaliya va leykopeniya bilan kechuvchi eroziyali revmatoid artrit
FA20.02 O'pka kasalliklari bilan kechuvchi eroziyali revmatoid artrit	FA20.03 Eroziyali revmatoid vaskulit
FA20.04 Eroziyali revmatoid tugun	FA20.0Y Boshqa aniqlangan eroziyali revmatoid artrit turlari
FA20.0Z Aniqlanmagan eroziyali revmatoid artrit	FA20.1 Eroziyasiz revmatoid artrit
FA20.10 Bo'g'imdan tashqari zararlanishsiz eroziyasiz revmatoid artrit	FA20.11 Splenomegaliya va leykopeniya bilan kechuvchi eroziyasiz revmatoid artrit
FA20.12 O'pka kasalliklari bilan kechuvchi eroziyasiz revmatoid artrit	FA20.13 Eroziyasiz revmatoid vaskulit
FA20.14 Eroziyasiz revmatoid tugun	FA20.1Y Boshqa aniqlangan eroziyasiz revmatoid artrit turlari
FA20.1Z Aniqlanmagan eroziyasiz revmatoid artrit	FA20.Z Aniqlanmagan revmatoid artrit

Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi: Bayonnoma 2025 yil ishlab chiqilgan. Qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 yil;

Milliy klinik bayonnoma ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa: RITvaTRIATM, Toshkent tibbiyot akademiyasi.

Klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishda hissa qo'shganlar:

Jarayonni tashkil etish bo'yicha revmatologiya yo'nalishi bo'yicha ishchi guruh a'zolari:

Azizova F.L.	TTA ilmiy ishlar bo'yicha prorektor t.f.d., professor
Alyavi B.A.	RITvaTRIATM direktori, t.f.d., professor
Miraxmedova X.T.	SSV revmatologiya bo'yicha bosh konsultant t.f.d., prof. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini mudiri.
Raximova D.A.	RITvaTRIATM laboratoriya raxbari t.f.d., SSV terapiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
Aliaxunova M.Yu.	RITvaTRIATM revmatologiya bo'limi mudiri t.f.d., professor
Nabieva D.A.	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
Dadabaeva N.A.	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini dotsenti, t.f.n.

Mualliflar ro'yxati:

Miraxmedova X.T.	SSV revmatologiya bo'yicha bosh konsultant t.f.d., prof. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini mudiri.
Raximova D.A.	RITvaTRIATM laboratoriya raxbari t.f.d., SSV terapiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
Aliaxunova M.Yu.	RITvaTRIATM revmatologiya bo'limi mudiri t.f.d., professor
Dadabaeva N.A.	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini dotsenti, t.f.n.
Nabieva D.A.	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
Djuraeva E.R.	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini dotsenti, t.f.n.
Xamraev X.X.	SamDTU 1-son ichki kasalliklar kafedrasini dotsenti, t.f.n.
Abdullaev U.S.	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini assistenti, t.f.n.
Muxsimova N.R.	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini assistenti, t.f.n.
Berdieva D.U.	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini assistenti, t.f.n.
Najmiddinov G.R.	Farg'ona viloyati bosh revmatologi
Bomurodova D.B.	Buxoro viloyati bosh revmatologi

Taqrizchilar:

Axmedov Xalmurad Sadullaevich	–Toshkent tibbiyot akademiyasi 2- son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
Shukurova Surayo Maqsudovna	– Tojikiston Fanlar akademiyasi a'zosi, Malaka oshirish instituti terapiya va kardiorevmatologiya kafedrasini mudiri t.f.d., professor.

Klinik bayonnoma TTA ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va 2024-yil 08-may №5 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Texnik ekspertiza va tahrirlash:

1. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti N.Muxsimova;
2. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti G.Saidrasulova.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ekspertlar guruhi mutaxassislarining ekspert bahosi:

1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kardiorevmatologiya bo‘limi mudiri, t.f.n., SSV bolalar revmatologi maslahatchisi Sabirova Feruza Badriddinovna.

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Klinik protokollarning qabul qilinishi va amaliyotda qo‘llanilishini baholash Toshkent shahri va Toshkent viloyati sog‘liqni saqlashning amaliy bo‘g‘ini vakillari bilan birgalikda amalga oshirildi.

Amaliyotchi shifokorlar:

1. M.V.Mirxamidov – TTA ko‘p tarmoqli klinikasi revmatologiya bo‘limi mudiri.
2. Z.X.Maxmudova – Toshkent shaxri 1-ShKSh revmatologiya bo‘limi mudiri.
3. N.A.Abduvalieva – Toshkent viloyati Olmaliq shaxri KTMP revmatolog shifokori.

Bayonnoma protokolda foydalanilgan qisqartmalar:

AB	– abatasept;
ADA	– adalimumab;
AMA	– anti-medikamentoz antitelo;
ALT	– alaninaminotransferaza;
AST	– aspartataminotransferaza;
ASSP	– siklik sitrullinirlangan peptidlarga antitelolar;
BYaQP	– bazis yallig‘lanishga qarshi preparatlar;
VASh	– vizual-analog shkala;
OITV	– odam immunitet tanqisligi virusi;
GIBP	– gen-injener biologik preparatlar;
GK	– glyukokortikoidlar;
GLM	– golimumab;
GGT	– gammaglutamiltranspeptidaza;
GX	– gidroksixloroxin;
DYuE	– dimlangan yurak yetishmovchiligi;
YuIK	– yurak ishemik kasalligi;
O‘IK	– o‘pkaning interstitsial kasalligi;
IL	– interleykin;
IgG	– immunoglobulin G;
INF	– infliksimab;
α-O‘NO	– α -o‘sma nekroz omili;
LF	– leflunomid;
YuZL	– yuqori zichlikdagi lipoprotein;
PZL	– past zichlikdagi lipoprotein;
JPZL	– juda past zichlikdagi lipoprotein;
DJT	– davolovchi jismoniy tarbiya;
MRT	– magnit-rezonans tomografiya;
MT	– metotreksat;
NDA	– differensilashmagan artrit;
NYaQV	– nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalar;
NR	– nojo‘ya reaksiya;
BOB	– bemorning og‘riqni baholashi;
BKUB	– bemorning kasallikni umumiy baholashi;
PFB	– proksimal falangalararo bo‘g‘im;
KFB	– kaft-falangalar bo‘g‘imi
PLB	– plyusnofalanga bo‘g‘imi
RA	– revmatoidный artrit
RKT	– randomizirlangan klinik tekshiruv
RTM	– rituksimab
RF	– revmatoid faktor
SIR	– standart infuzion reaksiya
TQB	– tizimli qizil bo‘richa

EChT	– eritrotsitlar cho‘kish tezligi
SRO	– S-reaktiv oqsil
SSZ	– sulfasalazin
tsBPVP	– target sintetik bazis yallig‘lanishga qarshi preparat
TSZ	– totsilizumab
UTT	– ultratovush tekshiruv
SZP	– sertolizumab pegol
OBS	– og‘riqli bo‘g‘imlar soni
ShBS	– shishli bo‘g‘imlar soni
EZFGDS	– ezofagogastroduodenoskopiya
ET	– ergoterapiya
ETS	– etanersept
ACR	– American College of Rheumatology
CDAI	– Clinical Disease Activity Index
DAS	– Disease Activity Index
EULAR	– European League Against Rheumatism
HAQ	– Health Assessment Questionnaire
NICE	– National Institute for Health and Care Excellence
SDAI	– Simplified Disease Activity Index

Mazkur tashxis/nozologiya bo‘yicha protokolning foydalanuvchilari:

- 1.Revmatologlar;
- 2.Terapevtlar;
- 3.Umumiy amaliyot shifokorlari;
- 4.Travmatologlar – ortopedlar;
5. JTSh shifokori, fizioterapevt
- 6.Tibbiyot oliygozlari magistrarlari, klinik ordinatorlari va katta kurs talabalari.

Bemorlar toifasi:

Revmatoid artritli bemorlar

Diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun dalillar darajasini baholash shkalasi (DD)

DD	Dalillarning ishonchlilik darajasi
1a	Yuqori sifatli meta-tahlillar, tizimli sharhlar randomizirlangan nazoratli tadqiqotlar (RNT) yoki tizimli xatolar xavfi juda past bo‘lgan RNT
1b	Yuqori sifatli meta-tahlillar, tizimli, yoki tizimli xatoliklar past xavfi bilan kamida bir marta o‘tkazilgan RNT
2a	Randomizatsiyasiz kamida bir marta o‘tkazilgan RNT, xatolik past darajasi
2b	Aralashish samarasi o‘rtacha xavfi yoki tizimli xatolar va sabab munosabatlarning o‘rtacha ehtimoli bilan yaxshi o‘tkazilgan hodisa-nazorat yoki kogort izlanishlar
3	Noanalitik tadqiqotlar (masalan: hodisalar tavsifi, hodisalar ketma-ketligi, hodisa-nazorat tadqiqotlari)
4	Ekspert xulosasi / klinik tajriba, kuzatishlar

Profilaktika, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari bo‘yicha tavsiyalar (RTT) ning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi	
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda

	ko‘rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, “holat-nazorat” tadqiqoti
5	Muolajaning ta’sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi	
A	Yuqori sifatli meta-tahlil, RNT tizimli sharhlar yoki tizimli xatolik ehtimoli juda kam bo‘lgan yirik RNT, ularning natijalari tegishli o‘zbek populyatsiyasiga mos kelishi mumkin
V	Yuqori sifatli sharhlar yoki kogort yoki hodisa-nazorat tadqiqotlar tizimli sharhi yoki tizimli xatolar xavfi juda past bo‘lgan yuqori sifatli kogort yoki hodisa-nazorat tadqiqotlari yoki tizimli xatolari xavfi juda yuqori bo‘lmagan RNT, ularning natijalari tegishli o‘zbek populyatsiyasiga mos kelishi mumkin.
S	Kogort yoki hodisa-nazorat tadqiqotlar yoki tizimli xatolari xavfi juda yuqori bo‘lmagan randomizatsiyasiz nazoratli tadqiqotlar, ularning tegishli o‘zbek populyatsiyasiga mos kelishi mumkin yoki tizimli xatolar xavfi juda past bo‘lgan yoki xavfi juda yuqori bo‘lmagan RNT, ularning natijalari bevosita tegishli o‘zbek populyatsiyasiga mos kelishi mumkin.
D	Bir qator hodisalar tavsifi yoki nazoratsiz tadqiqotlar yoki ekspertlar xulosasi.

2. Asosiy qism.

2.1. Kirish:

Revmatoid artrit muammosining dolzarbligi, eng yuqori kasallanish darajasi mexnatga layoqatli 40-55 yoshga to‘g‘ri keladi. RA kasallik boshlangan dastlabki 3-5 yil ichida bemorlarning yarmida doimiy mexnatga layoqatsizlikni keltirib chiqaradi. RA da yurak-qon tomir patologiyasi, og‘ir infeksiyalar, onkologik kasalliklarni yuzaga kelishi, kasallikka xos asoratlarning yuqori darajada uchrashi tufayli bemorlarning umr ko‘rish davomiyligini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Kasallik boshlanganidan 20 yil o‘tgach, bemorlarning 60-90% ish qobiliyatini yo‘qotadi va 1/3 qismi butunlay nogiron bo‘lib qoladi.

Shu nuqtai nazardan, revmatoid artritni tashxislash, davolash va oldini olishning yangi usullarini ishlab chiqish bemorlar salomatligini yaxshilash va sog‘liqni saqlash tizimiga tushayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yukni kamaytirishda katta ahamiyatga ega.

[<https://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/402775973/>]

2.2. Umumiy ta’rifi:

Revmatoid artrit - etiologiyasi noma’lum immun yallig‘lanish (autoimmun) revmatik kasallik bo‘lib, erta nogironlikka olib keladi va bemorlarning umr ko‘rish muddatini qisqartiradigan surunkali eroziv artrit va ichki organlarning tizimli zararlanishi bilan kechadigan kasallik. Kasallikning etiologiyasi ko‘p omilli bo‘lib, uning yuzaga kelishi genetik va muhit omillarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. RA dunyoning rivojlangan mamlakatlarida nogironlikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, sog‘liqni saqlash, iqtisod tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Populyatsiyada umumiy tarqalish 1-2% orasida o‘zgarib turadi. Rossiya

epidemiologik tadqiqotiga ko'ra, qariyb 800 ming kishi RA dan aziyat chekmoqda, bu aksariyat Yevropa mamlakatlaridagi RA uchrash soniga to'g'ri keladi. [<https://diseases.medelement.com/disease/%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B8%D0%B4%D0%BD%D1%8B%D0%B9-%D0%B0%D1%80%D1%82%D1%80%D0%B8%D1%82-%D0%BA%D0%BF-%D0%BA%D1%8B%D1%80%D0%B3%D1%8B%D0%B7%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD-2022/17761>]

Revmatoid artrit butun dunyoda keng tarqalgan va barcha etnik guruhlariga ta'sir qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda tarqalish darajasi 0,5-1% (qariyalarda 5%) gacha. Har yili 100 000 aholiga 5 dan 50 gacha odam kasallanadi. Kasallikning o'rtacha boshlanish yoshi ayollarda 40-50 yoshni, erkaklarda esa biroz ko'proqni tashkil qiladi. Ayollar erkaklarga qaraganda 3-5 marta tez-tez kasal bo'lishadi.

[<https://webmed.irkutsk.ru/doc/pdf/kr250.pdf>]

2.3. Klinik tasnifi:

(«Rossiya revmatologlar assotsiatsiyasi» Umumrossiya jamoat tashkiloti boshqaruvi plenumining majlisida qabul qilingan, 2007 y.):

I. Asosiy tashxis:

Seropozitiv revmatoid artrit (M05.8);

Seronegativ revmatoid artrit (M06.0);

Revmatoid artritning alohida klinik shakllari:

Felti sindromi (M05.0);

Kattalarda Still kasalligi (M06.1).

Ehtimolli revmatoid artrit (M05.9, M06.4, M06.9).

RA seropozitivligi va seronegativligi revmatoid omil va/yoki siklik sitrullinirlangan oqsillar antitanachalari (ASB) aniqlanishiga qarab belgilanadi, ularni aniqlash uchun standartlashtirilgan laboratoriya usullaridan foydalanish lozim.

II. Klinik bosqichi:

Juda erta bosqichi: kasallik davomiyligi 6 oygacha;

Erta bosqich: kasallik davomiyligi 6 oydan - 1 yilgacha;

Ifodalangan bosqich: kasallikka xos belgilar kuzatilganda kasallik davomiyligi 1 yildan ortiq;

Kechki bosqich: kasallik davomiyligi 2 yil va undan ortiq + mayda (III—IV rentgenologik bosqich) va yirik bo'g'imlarda kuchli destruksiya, asoratlar mavjudligi.

III. Kasallik faollik darajasi:

0 - remissiya (DAS28 < 2,6, EChT va SRO –norma)

I – past (2,6 < DAS28 < 3,2, EChT va SRO 20gacha)

II - o'rtacha (DAS28 = 3,2-5,1, EChT va SRO 20-40)

III - yuqori (DAS28 > 5,1, EChT va SRO > 40)

Faollikni bazaviy baholash sifatida DAS28 indeksini qo'llash tavsiya etiladi.

DAS28 hisoblash formulasi:

$DAS28 + 0,56\sqrt{OBS} + 0,28\sqrt{ShBS} + 0,70\ln EChT + 0,014 BS'HUB$

Bunda, OBS- og'riqli bo'g'imlar soni, ShBS- shishli bo'g'imlar soni quyidagi 28dan: yelka, tirsak, bilakraft, qo'l kaftlari, proksimal falangalararo, tizza, EChT –Vestergren usulida eritrotsitlar cho'kish tezligi,

BS'HUB – bemorlar sog'ligi holatining umumiy bahosi 100 millimetrli vizual analog shkala bo'yicha, mm. da

DAS28 bilan mos kelishi isbotlangan boshqa faollikni hisoblash usullarini ham qo'llash mumkin.

Bo'g'implardan tashqari (tizimli) belgilar:

Revmatoid tugunchalar;

Revmatoid vaskulit (yarali-nekrotik vaskulit, tirnoq o'rindig'ining infarkti, digital arteriit, livedo-angiit);

Neyropatiyalar (mononevrit, polineyropatiya);

Plevrit (quruq, eksudativ), perikardit (quruq, eksudativ);

Shegren sindromi;

Ko'zning zararlanishi (sklerit, episklerit, to'r parda vaskuliti);

O'pkaning interstitsial kasalligi

IV. Instrumental tavsifi:

Eroziyalar mavjudligi yoki yo'qligi (rentgenografiya, MRT, UTT ma'lumotlari):

noeroziv;

eroziv

Rentgenologik bosqich (Shteynbroker bo'yicha, modifikatsiyalangan):

I – bo'g'imoldi osteoporozi;

II - bo'g'imoldi osteoporozi + bo'g'im tirqishining torayishi, bir nechta eroziyalar;

III – oldingi bosqich belgilari + ko'p sonli eroziyalar + bo'g'implar chiqishi;

IV - oldingi bosqich belgilari + suyak ankilozi.

V. Qo'shimcha immunologik tavsif - Siklik sitrullinirlangan peptidlarga antianachalar (ASSP):

ASSP - musbat

ASSP – manfiy

VI. Funktsional sinf:

I sinf - o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatlari to'liq saqlangan holda kasbiy va nokasbiy faoliyat bilan shug'ullanish.

II sinf - o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatlari to'liq saqlangan holda nokasbiy faoliyat bilan shug'ullanish, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari cheklangan.

III sinf - o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatlari to'liq saqlangan holda kasbiy va nokasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari cheklangan.

IV sinf – o'z-o'ziga xizmat qilish, kasbiy va nokasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari cheklangan.

O'z-o'ziga xizmat qilish: kiyinish, ovqatlanish, o'zini parvarishlash va h.

Nokasbiy faoliyat: dam olish elementlari, bo'sh vaqtdan foydalanish, jinsi va yoshini hisobga olgan holda sport bilan shug'ullanish va b.

Kasbiy faoliyat: ish, o'qish, jinsi va yoshini hisobga olgan holda uy ishlari bilan shug'ullanish (uy xizmatchilari uchun).

VII. Asoratlar:

Ikkilamchi amiloidoz.

Ikkilamchi osteoartroz

Generallashgan osteoporoz

Osteonekroz

Tunnel sindromlar (karpal kanal sindromi, tirsak, katta boldir nervlari siqilish sindromi).

Atlanto-aksial bo‘g‘im chiqishi, shuningdek mielopatiya bilan, bo‘yin umurtqasining noturg‘unligi.

Qon tomirlarning aterosklerotik shikastlanishi.

Tashxisda aks ettirish lozim:

Asosiy tashxis

Seropozitivlik, seronegativlik

Klinik bosqich

Kasallik faolligi

Bo‘g‘imdan tashqari (tizimli) belgilari,

Instrumental tavsifi,

ASSP mavjudligi,

Funksional sinfi

Asoratlari.

[\[https://www.rnmot.ru/public/uploads/RNMOT/clinical/2021/%D0%A0%D0%9D%D0%9C%D0%9E%D0%A2_%D0%9C%D0%B0%D0%B7%D1%83%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%93%D0%B0%D0%B9%D0%B4%D1%83%D0%BA%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%98%D0%97_%D0%A0%D0%90_%D0%B8%D1%81%D0%BF%D1%80.pdf\]](https://www.rnmot.ru/public/uploads/RNMOT/clinical/2021/%D0%A0%D0%9D%D0%9C%D0%9E%D0%A2_%D0%9C%D0%B0%D0%B7%D1%83%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%93%D0%B0%D0%B9%D0%B4%D1%83%D0%BA%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%98%D0%97_%D0%A0%D0%90_%D0%B8%D1%81%D0%BF%D1%80.pdf)

3. Usullar, yondashuvlar va tashxislash jarayonlari.

3.1. Tashxislash mezonlari:

Revmatoid artritning tasnifiy mezonlari

RA tashxisi ACR/EULAR 2010y tasniflash mezonlariga asoslanadi

Amerika revmatologlar kollegiyasi, 1987y.

	Mezonlar	Izoh
1	Ertalabki karaxtlik	Ko‘rsatilgan yettita meznlardan har qanday to‘rttasining mavjudligida RA tashxisi qo‘yiladi. 1-dan 4-gacha mezonlar bemorda kamida 6 oy davomida kuzatilgan bo‘lishi lozim.
2	Uchta va undan ortiq katta bo‘g‘imlar artriti	
3	Kaft bo‘g‘imlari artriti	
4	Simmetrik artrit	
5	Revmatoid tugunchalar	
6	Qon zardobidagi revmatoid omil	
7	Rentgenologik o‘zgarishlar	

Biroq hozirgi kunda bu mezonlar o‘z dolzarbligini yo‘qotgan, chunki ular kasallikning dastlabki 6 oyida 20-40% aholida RA tashxisini qo‘yish imkonini beradi, bu hozirgi qarashlarga ko‘ra o‘z vaqtida va samarali davolashni boshlash uchun to‘g‘ri kelmaydi.

Revmatoid artritning tasnifiy tashxislash mezonlari

ACR/EULAR 2010y.

Bo‘g‘imlarning klinik shikastlanishi (ob‘ektiv tekshiruvda shish va/yoki og‘riq) (0-5 ball)	Ballar
• 1- yirik bo‘g‘imlar	1
• 2-10 yirik bo‘g‘imlar	2
• 1-3 mayda bo‘g‘imlar (yirik bo‘g‘imlar hisobga olinmaydi)	3
• 4-10 mayda bo‘g‘imlar (yirik bo‘g‘imlar hisobga olinmaydi)	5
• >10 bo‘g‘imlar (kamida 1 ta mayda bo‘g‘im)	

RO va ASSP testlari (0-3 ball, kamida 1ta test talab qilinadi) <ul style="list-style-type: none"> • Salbiy • RO yoki ASSP uchun kuchsiz ijobiy (normaning yuqori chegarasidan 3 martagacha oshgan) • RO yoki ASSP uchun kuchli ijobiy (normaning yuqori chegarasidan 3 martadan ko'p oshgan) 	0 2 3
O'tkir fazali ko'rsatkichlar (0-1 ball, kamida 1ta test talab qilinadi) <ul style="list-style-type: none"> • EChT va SRO normal miqdorlari • EChT yoki SRO ortishi 	1
Sinovitning davomiyligi (0-1 ball) <ul style="list-style-type: none"> • < 6 hafta • ≥6 hafta 	0 1

Mezon birinchi navbatda RAni erta tashxislashga qaratilgan RA tashxisini qo'yishda quyidagilar zarur:
bemorda kamida bitta bo'g'im shishganligini aniqlash
bo'g'implarning yallig'lanish o'zgarishi bilan birga bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa kasalliklarni istisno qilish.

4 ta bo'limda mumkin bo'lgan o'ntadan kamida 6 ball to'plash.

Asosiy o'rinni yallig'langan va og'riqli bo'g'implarning sonini aniqlash egallaydi.

Shu mezonlar asosida 4 ta bo'g'implar turkumi ajratiladi

Bo'g'implar turkumi:

Istisno bo'g'implar: distal falangalararo bo'g'implarning, birinchi bilak-kaft va birinchi oyoq kafti bo'g'implarning o'zgarishlari hisobga olinmaydi
Yirik bo'g'implar: yelka, tirsak, chanoq-son, tizza, boldir-oyoq kafti
Mayda bo'g'implar: pyastnofalang, proksimal falangalararo, 2-5 plyusnefalang, kaft katta barmog'ining falangalararo bo'g'implari, bilak-kaft bo'g'implari
Boshqa bo'g'implar: RAda shikastlangan, ammo yuqoridagi guruhlarga kiritilmagan bo'g'implar (masalan, yonoq-pastki jag', akromial-o'mrov, to'sh-o'mrov va b.)

Klinik tashxisni shakllantirishga misollar:

Seropozitiv revmatoid artrit (M05.8), ifodalangan bosqich, faollik II, eroziv (rentgen II bosqich), tizimli ko'rinishlar bilan (revmatoid tugunchalar), ASSP (-), FC II.

Seronegativ revmatoid artrit (M06.0), erta bosqich, faollik III, eroziyasiz (rentgen bosqich I), ASSP (+), FC I.

Seropozitiv revmatoid artrit (M05.8), kechki bosqich, faollik II, tizimli belgilar bilan (revmatoid tugunchalar, digital arterit), eroziv (rentgen bosqichi III), ASSP (tekshirilmagan), FC III, asoratlar – o'ng tomonlama karpal kanal sindromi, buyrak zararlanishi bilan ikkilamchi amiloidoz.

Ehtimolli revmatoid artrit (M06. 9), seronegativ, erta bosqichi, faollik II, noeroziv (rentgen bosqichi I), ASSP (+), FS I.

[<https://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/402775973/>]

Klinik tashxislash

Shikoyatlari:

og'riq, artralgiyalar, shish, asosan mayda kaft bo'g'implarda ertalabki karaxtlik

musht qilishga qiynalish va yurganda oyoq barmoqlari asosida og'riq bo'lishi
 tez charchash
 umumiy holsizlik
 ozib ketish
 subfebrilitet

Anamnezi:

Artrit simptomlarining davom etishi
 Ertalabki karaxtlik mavjudligi va davomiyligi
 Bo'g'imlardagi og'riqlarning «sutkalik ritmi»
 Bo'g'imlarning simmetrik shikastlanish belgilarining turg'unligi
 Yondosh kasalliklar, oldingi va qo'shimcha terapiya, davolash usullarini tanlashga ta'sir
 qiladigan zararli odatlar, yaqin va uzoq muddatli prognozni baholash to'g'risidagi ma'lumotlar.

Fizikal tekshiruvlar:

Shish, harakatning cheklanishi, deformatsiya;
 kaft falangalari, proksimal falangalararo, bilak bo'g'imlarining simmetrik poliartikulyar
 yallig'lanishi oyoq kafti yoki yirik bo'g'imlarning shikastlanishiga nisbatan ustunlik qilishi
 mumkin;
 qo'l va/yoki oyoqlarda «ko'ndalang siqilish» ning ijobiy testi;
 suyaklararo mushaklarning atrofiyasi;
 revmatik tugunchalar;
 limfadenopatiya.

RAning klinik belgilari

Klinik bosqichlari va shakllari	Simptomlari
Erta	UASh revmatolog shifokor maslahatiga yo'llanma berish uchun RAga shubha uyg'otadigan quyidagi modifikatsiyalangan mezonlarni aniqlash lozim (Emery, et.al., 2002): uch yoki undan ortiq yallig'langan bo'g'imlarning mavjudligi; kaft falangalari va plyusnefalangalar bo'g'imlarning shikastlanishi, qo'l va/yoki oyoqlarning «ko'ndalang siqilish» ning ijobiy testi; ertalabki karaxtlik davomiyligi 30 daqiqa va undan ortiq bo'lishi
Debyut variantlari	Asta-sekin (bir necha oy ichida) qo'l panja mayda bo'g'imlarida (holatlarning yarmida) og'riq va karaxtlik kuchayib borishi bilan simmetrik poliartrit rivojlanishi. Asosan qo'l va oyoq bo'g'imlarining shikastlanishi bilan o'tkir poliartrit, ertalabki yaqqol karaxtlik, qonda revmatoid omil Tizza yoki yelka bo'g'imlarining mono-oligoartriti, jarayonga qo'l va oyoq mayda bo'g'imlarini tez jalb qilinishi bilan. Septik yoki mikrokrustalli artritga o'xshash katta bo'g'imlarning o'tkir monoartriti. Tizimli namoyon bo'lgan o'tkir oligo- yoki poliartrit (febril isitma, limfadenopatiya, gepatosplenomegaliya). Ko'pincha yoshlarda (kattalardagi

	<p>Still kasalligiga o'xshash).</p> <p>"Palindrom revmatizm": tizza va tirsak bo'g'imlarining o'tkir nosimmetrik poliartritining ko'p takrorlanadigan hurujlari, bir necha soat yoki kunlar davom etadi va to'liq tiklanish bilan yakunlanadi.</p> <p>Ko'pincha bilak bo'g'imlarida takrorlanadigan bursit va tenosinovit.</p> <p>Keksa yoshdagi o'tkir poliartrit: kichik va katta bo'g'imlarning ko'plab zararlanishi, qattiq og'riq, diffuz shish va bo'g'im harakatchanlikning cheklanganligi. "RSSYoSh sindromi" (remitirlovchi seronegativ simmetrik sinovit yostiqsimon shish bilan)</p> <p>Qariyalarda generallashgan mialgiya, karaxtlik, depressiya, ikki tomonlama karpal tunnel sindromi, vazn yo'qotish. Revmatik polimialgiyani eslatadi.</p>
Kechki	<p>Qo'llar: ulnar og'ish, odatda kasallik boshlanganidan 1-5 yil o'tgach rivojlanadi; "boutonerka" tipidagi qo'l panja barmoqlari zararlanishi (proksimal falangalararo bo'g'imlarda bukilish) yoki "oqqush bo'yni" (proksimal falangalararo bo'g'imlarda ortiqcha yozilishi); qo'l panjasining "lornetka" sifatida deformatsiyasi.</p> <p>Tizza bo'g'imlari: bukilish va valgus deformatsiyasi, Beyker kistasi.</p> <p>Oyoqlar: plyusnefalang bo'g'imlarning boshlari chiqishi, tibial og'ish, bosh barmoqning deformatsiyasi.</p> <p>Bo'yin umurtqasi: atlantoaksial bo'g'im sohasida chiqish, ba'zan orqa miya yoki umurtqa arteriyasining bosilishi bilan asoratlanishi mumkin.</p> <p>angush-cho'michsimon bo'g'im: ovozning dag'allashishi, hansirash, disfagiya, qaytalanuvchi bronxit.</p> <p>Bog'lov apparatlari va sinovial qopchalar: bilak va kaft bo'g'imlari tendosinoviti; ko'pincha tirsak bo'g'imi bursiti; tizza bo'g'imining orqa qismidagi sinovial kista (Beyker kistasi).</p>
Alohida klinik shakllar Felti sindromi	<p>neytropeniya;</p> <p>splenomegaliya;</p> <p>gepatomegaliya;</p> <p>bo'g'imlarning og'ir jarohati;</p> <p>bo'g'imdan tashqari belgilar (vaskulit, neyropatiya, o'pka fibrozi, Shegren sindromi);</p> <p>oyoqlar terisi giperpigmentatsiyasi;</p> <p>infeksion asoratlarning yuqori xavfi.</p>
Kattalarda Still kasalligi	<p>residivlanuvchi febril isitma;</p> <p>yuqori laborator faollikka ega artrit;</p> <p>RF, ASSP bo'yicha seronegativ;</p> <p>makulopapulyoz toshma.</p>

<p>Differensiativ alanmagan artrit</p>	<p>NDA: ma'lum bir nozologik shaklga kirmaydigan bir yoki bir nechta bo'g'imlarning yallig'lanishli shikastlanishi, RA yoki boshqa kassalliklar bo'yicha tasnif mezonlariga to'g'ri kelmaydi.</p> <p>RA o'ziga xos bo'lmagan belgilardan boshlanib, mezonlar bo'yicha tashxis qo'yish imkoni bo'lmaydi. NDA variantining ko'p uchraydigan belgilari:</p> <p>Yirik bo'g'imlar oligoartriti Qo'l panja bo'g'imlarining asimmetrik artriti Qo'l panja bo'g'imlarining RF bo'yicha seronegativ oligoartriti Noturg'un poliartrit</p>
<p>Tizimli belgilari</p>	<p>Konstitutsional belgilar: generallashtirilgan holsizlik, charchash, ozib ketish, subfebril isitma.</p> <p>Yurak qon tomir tizimi: perikardit, vaskulit, aterosklerozning erta rivojlanishi.</p> <p>O'pkalar: plevrit, o'pkaning interstitsial kasalliklari, o'pkadagi revmatoid tugunlar (Kaplan sindromi).</p> <p>Teri: revmatoid tugunlar (qattiq konsistensiyali, og'riqsiz, yon to'qimalar bilan yopishgan, tirsak va kaft paylari sohasida) digital arterit, nekrozlanuvchi vaskulit, to'rsimon livedo, oyoq va qo'l kaftlari kapillyariti, gemorragik vaskulit</p> <p>Asab tizimi: kompression neyropatiya, simmetrik sensor-motor neyropatiya, ko'p sonli mononevrit, bo'yin mieliti.</p> <p>Mushaklar: generallashtirilgan amiotrofiya.</p> <p>Ko'zlar: quruq keratokon'yunktivit, episklerit, sklerit, periferik yarali keratopatiya.</p> <p>Buyraklar: amiloidoz, vaskulit, nefrit (ba'zan).</p> <p>Qon tizimi: anemiya, trombositoz, neytropeniya</p>

[<https://diseases.medelement.com/disease/%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B8%D0%B4%D0%BD%D1%8B%D0%B9-%D0%B0%D1%80%D1%82%D1%80%D0%B8%D1%82-%D0%BA%D0%BF-%D0%BA%D1%8B%D1%80%D0%B3%D1%8B%D0%B7%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD-2022/17761>]

Laborator tekshiruvlari.

Asosiy laborator tekshiruvlari:

- umumiy qon taxlili;
- umumiy peshob tahlili;

Qo'shimcha laborator tekshiruvlari:

- SRO, revmatoid omil (IgM RO)
- ASSP
- Qon bioximik taxlili: AST i ALT, kreatinin, glyukoza
- gepatit V, S, OIV viruslari markerlari
- Homiladorlikka test

- Lipidlar profili
- Antinuklear omil
- IgG konsentratsiyasi
- Mantu tuberkulin sinamasi va/yoki Diaskin testi

RAning asosiy tashxislash biomarkerlari

Revmatoid omil (IgM RO)

ASSP (sitruilinirlangan oqsillar antitanachasi), birinchi navbatda siklik sitruilinirlangan peptidlar antitanachalari

RO Immunoglobulin IgM – sezgir, ammo RAning yetarli darajada maxsusligi kam markeri, yuqori titr – bo‘g‘imlarning tez avj oluvchi destruksiya va tizimli belgilarda kuzatiladi.

ASSP – RAning maxsus va aniq ma’lumot beradigan markeri, ayniqsa erta bosqichlarida.

I A	Tashxis qo‘yish, taqqoslama tashxis o‘tkazish va bo‘g‘imlarning tez avj oluvchi destruksiya uchun oldindan aniqlash uchun barcha bemorlarda RO va ASSPni aniqlash tavsiya etiladi
-----	---

EChT – tizimli yallig‘lanishning yuqori sezgir, ammo nospesifik va noturg‘un markeri.

SRO – yallig‘lanish faolligini baholash, bo‘g‘imlarning destruksiya tezligini bashorat qilish uchun qo‘llaniladi.

Sinovial suyuqlik sinovit bo‘lgan bemorlarda RAning mikrokrustallik yoki septik artritni taqqoslama tashxis qilish uchun qo‘llaniladi.

Lipidlar profilini (birinchi navbatda TSZ va TOFA tayinlashni rejalashtirishda) to‘liq tekshirish kerak.

IgG konsentratsiyasi (birinchi navbatda RTM ni davolashni rejalashtirishda)

Diaskin-test – Tuberkulez infeksiyasini aniqlash maqsadida, gen-injener biologik preparatlarni (GIBP) qo‘llashdan oldin, va keyinchalik 1 marta har 6 oyda.

[<https://autoimmun.ru/upload/iblock/0c5/Lapin-S.V.-Maslyanskiy-A.L.LABORATORNAYA-DIAGNOSTIKA-REVMATOIDNOGO-ARTRITA-NOVYE-PERSPEKTIVY.pdf>]

Instrumental tekshiruvlar.

Asosiy instrumental tekshiruvlari:

-Qo‘l va oyoq kaftlarining ko‘lamli rentgenografiyasi;

-Bo‘g‘imlarni ultratovush tekshirish;

-MRT

Qo‘shimcha instrumental tekshiruvlari:

- O‘pka R-grafiyasi va/yoki KT

-EKG

-Exokardiografiya

-EGFDS

-Densitometriya

IV D	Qo‘l va oyoq kaftlarining rentgenografiyasi – birlamchi tekshirish va keyin har yilgi bo‘g‘imlar destruksiya avj olishini baholashdagi asosiy tashxislash usuli bo‘lib hisoblanadi.
------	---

Rentgenografiya III va IV R-bosqichli bemorlarda ko'rsatma bo'yicha o'tkaziladi. Artritning erta rentgenologik belgilari quyidagilar: 2- va 3- qo'l panja pyastnofalang bo'g'imida, 3- proksimal falangalararo bo'g'implarda, kaft bo'g'implarida, kaft bilak bo'g'implarida, tirsak suyaklarining o'qsimon o'simtasida, 5- oyoq panjasi plyusnefalang bo'g'implarida. Muntazam usul sifatida RA katta bo'g'implarning rentgenografiyasi tavsiya qilinmaydi va faqat maxsus ko'rsatmalar (avaskuler nekroz, septik artrit va boshqalarga gumon qilinganda) bo'yicha amalga oshiriladi.

I A	UTT -bo'g'implarning energetik doppler bilan ultratovushli tekshirish yallig'lanish darajasini va remissiya davomiyligini bashoratlash imkonini beradi. .
-----	---

UTT Bo'g'implarni ultratovushli tekshirishda "kulrang shkala" bo'yicha quyidagi mezonlar baholanadi: sinovial membrananing qalinlashishi, bo'g'imda suyuqlik mavjudligi, bo'g'im yuzasi konturining buzilishi (eroziyaga mos keladi), periartikulyar to'qimalarning o'zgarishi (tenosinovit). Energetik doppler tekshirishda signalning lokalizatsiyasi, tarqalishi va intensivligi aniqlanadi, bu esa yallig'lanishning og'irligini baholashga imkon beradi.

Qo'l bo'g'implarning ultratovushi RAni erta tashxislash va bashorat qilishda ahamiyatga ega, BPVP va GIBP bilan davolash fonida remissiya saqlanishini bashoratlash imkonini beradi.

Bo'g'im MRTsi – bo'g'implarning standart rentgenografiyasiga qaraganda RAni aniqlashning sezgir usuli hisoblanadi. Artritning MRT-belgilari o'ziga xos emas. MRT tomonidan aniqlangan o'zgarishlar (sinovit, tenosinovit, suyak iligi shishi va suyak to'qimalarining eroziyasi) bo'g'implarning destruksiyasini bashoratlash imkonini beradi.

IV D	Erta RA va differensiyalanmagan artrit tashxisini qo'yish qiyin bo'lganda kaftlar MRTsi tavsiya etiladi
------	---

IV D	Ko'krak qafasi rentgenogrammasi nafas a'zolarining revmatik zararlanishi va o'pkaning yo'ldosh kasalliklarini aniqlash uchun dastlabki tekshiruv paytida, BPVP va GIBP terapiyasini tayinlashdan oldin va keyin, so'ngra esa hamda har yili o'tkaziladi
------	---

O'pka kompyuter tomografiyasi quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

O'pkaning diffuz (interstitsial) yoki o'choqli (revmatoid tugunchalar) shikastlanishlarini aniqlash uchun

Bo'g'implar va o'pkaning shikastlanishi (sarkoidoz, xavfli o'smalar va b.) bilan kechadigan boshqa kasalliklar bilan RAni taqqoslama tashxis qilish uchun davolash usulini tanlashga ta'sir qiladigan yoki NLR (sil, interstitsial o'pka kasalligi, va hokazo) xavfini oshirishi mumkin bo'lgan yondosh kasalliklarni tashxislash uchun.

EKG va ExoKG yurak-qon tomir patologiyasi tashxis uchun bemorlarda bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

EGFDS NYaQVni qabul qilgan bemorlarda yiliga kamida 1 marta amalga oshiriladi.

Densitometriya (rentgen absorptiometriyasi) quyidagi ko'rsatkichlar uchun: ayollar uchun 50 yoshdan va erkaklar uchun 60 yoshdan kattalarga, kasallikning yuqori faolligida (CRoning turg'un 20 mg/l dan ortiq o'sishi), Shteynbroker bo'yicha rentgen bosqichi III-IV bo'lganda, HAQ indeksi 1,25 dan ortiq, tana vazni 60 kg dan kam va GK qabul qilganda tavsiya etiladi.

Mutaxassislarning konsultativ ko‘ruvi uchun ko‘rsatmalar:

- travmatolog/ortoped - jarrohlik aralashuvi masalasini hal qilish uchun;
- RA tizimli zararlanishi bilan kasallikning og‘ir kechishida endokrinolog, pulmonolog, kardiolog, nefrolog, gematolog, oftalmolog;
- Gastroenterolog - oshqozon-ichak trakti zararlanganda;
- Ftiziatr - yashirin sil infeksiyaga gumon qilinganda GIBV tayinlangan holatlarda;
- Stomatolog - kserostomiya, so‘lak bezi zararlanishining tashxisi uchun;
- Akusher-ginekolog - homiladorlikni rejalashtirish yoki homilador ayollar uchun.

3.2.Tashxislash algoritmi:

- Ko‘rikda periferik bo‘g‘imlardan bittasi bo‘lsa ham shishganligi aniqlanishi
- Oyoq va/yoki qo‘llarda «siqish» simptomi musbat
- 30 daqiqa va undan ortiq vaqt davom etadigan ertalabki karaxtlik

- Jismoniy tekshirishlar natijasida bittasi bo‘lsa ham shishganligi aniqlanishi
- Bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi bilan kuzitiladigan boshqa kasalliklarni istisno qilish
- Bitta bemorda kasallik manzarasi xususiyatlarini aks ettiruvchi 4 pozitsiya bo‘yicha yig‘ish mumkin bo‘lgan 10 ta balldan kamida 4 ball yig‘ish
- Bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi bilan kuzitiladigan boshqa kasalliklarni istisno qilish

A. Bo‘g‘imlar shikastlanishining klinik

belgilari (ob‘ektiv tekshiruvda shish va/yoki og‘riq) (0-5 ball)

- 1 ta yirik bo‘g‘im
- 2-10 ta yirik bo‘g‘im
- 1-3ta mayda bo‘g‘imlar (yirik bo‘g‘imlar hisobga olinmaydi)
- 4-10 ta mayda bo‘g‘imlar (yirik bo‘g‘imlar hisobga olinmaydi)
- 10 tadan ortiq bo‘g‘imlar (kamida 1ta test talab qilinadi)

V. RO/ASSP testi salbiy (kamida 1 ta test talab qilinadi)

- RO/ASSP testi kuchsiz ijobiy (normaning yuqori chegarasidan 3 martaga oshadi)
- RO/ASSP testi kuchli ijobiy (normaning yuqori chegarasidan 3 martadan ko‘p oshadi)

S. O‘tkir fazali ko‘rsatkichlar (0-1 ball, kamida 1 ta test talab qilinadi)

- EChT va SRO ko‘rsatkichlari

me'yorida

D. Sinovitning davomiyligi (0-1 ball)

- 6 haftadan kam
- 6 hafta va undan ortiq

RA ni erta bosqichlarda aniqlash

algoritmi

RA ga shubha artrit
(EChT va SRO ko'tarilishi yoki ko'tarilmasligi)

RO ni aniqlash

RO titri yuqori

RO titri past

RO titri manfiy

RA ehtimoli yuqoriligi
kasallikning agressiv
kechishi xavfi yuqori

Anti-SSP aniqlash
natija manfiy

natija musbat

BYaQV ni yoki ularning
kombinatsiyasini zudlik
bilan tayinlash

Bo'g'imlarni UTT

Bo'g'imlarni MRT

pannusni, eroziyalarni aniqlash sinovit,
tendovaginit, revmatoid tugunchalarni
tashxisini tasdiqlash

diagnostik ahamiyatga ega
o'zgarishlar yo'qligi

RA ehtimoli yuqori

RA ehtimoli past

Bazisli dori vositalarini
tayinlash

Keyingi kuzatuv

[https://umedp.ru/articles/metodicheskie_rekomendatsii_po_rentgenologicheskim_metodam_issledovaniya_pri_revmatoidnom_artrite_i_.html]

3.3. Qiyosiy tashxis va qo'shimcha tekshiruvlarni asoslash:

Tashxis	Qiyosiy tashxis uchun asos	Tekshiruvlar	Tashxisni istisno qilish mezonlari
Osteoartroz	Yumshoq to'qimalarning bir oz shishi, DFAB	UQT, ASSP, bo'g'imlar rentgenografiyas	Ertalabki kuchli karaxtlik bo'lmasligi, bo'g'imlardagi og'riqlar boshlang'ich yoki mexanik holatda,

	qo‘shilishi	i	ASSP, RO manfiy. Qo‘l panja R-grammasida osteoskleroz, osteofitoz manzarasi.
Tizimli qizil bo‘richa	Bo‘g‘im sindromi: mayda bo‘g‘imlar artriti	UQT, ASSP, RO, ANF, ANA, bo‘g‘imlar rentgeni	Noeroziv artrit, ANF, ANA yuqori titrda. Ichki a‘zolar tizimli shikastlanishi va yaqqol konstitutsional sindrom kuzatiladi.
Podagra	Bo‘g‘im sindromi.	UQT, UST, ASSP, RO, siydik kislotasi, bo‘g‘imlar rentgeni va punksiyasi	Ko‘proq 40-50 yoshli erkaklarda kuzatiladi. 1 plyusnefalang bo‘g‘imi o‘tkir artriti. Tofuslar bo‘lishi. Giperurekemiya. Sinovial suyuqlikda natriy monourat kristallari. Eroziyasiz subkortikal kistalar.
Reaktiv artrit	Asimmetrik monoartrit, oligoartrit	UQT, UST, RO, ASSP, HLA-V27, xlamidiyga test, chanoq suyaklari rentgeni	40 yoshgacha bo‘lganlarda kuzatiladi. Ichak va siydik yo‘llari-jinsiy a‘zolar infeksiyalari bilan bog‘liq. Assimmetriklik, oyoqlarning shikastlanishi, sosiskasimon shish, entezitlar xos. Konyunktivit. RO va ASSP kuzatilmaydi, Rengenologik sakroileit.
Psoriatik artrit	Asimmetrik monoartrit, oligoartrit, ba‘zan simmetrik poliartrit	UQT, UST, RO, ASSP, HLA-V27, chanoq suyaklari rentgeni	Psoriaz bilan bog‘liq. Mutillanuvchi, «o‘qli, sosiskasimon» artrit, daktilit. Umurtqa pohnasi, DFAB shikastlanishi, entezitlar. RO va ASSP kuzatilmaydi; bir yoki ikki tomonlama sakroileit. Ko‘p hollarda HLA-B27 seropozitiv.
Tizimli sklerodermiya	Bo‘g‘im sindromi	UQT, Immunologik testlar	Reyno fenomeni va terining qattiqlashishi, qizilo‘ngach, o‘pkaning shikastlanishi; kam hollarda artrit kuzatilishi mumkin, odatda artralgiyalar; eroziv artrit kuzatilmaydi.
Revmatik polimialgiya	Bo‘g‘im sindromi	UQT, RO, ASSP, bo‘g‘imlar rentgeni	O‘q bo‘g‘imlar va proksimal mushaklar guruhida diffuz og‘riq va ertalabki karaxtlik. GKS terapiyaga kuchli javob beradi. EChT yaqqol ko‘tarilishi, ko‘pincha 50 yoshdan kattalarda kuzatiladi
Virusli artritlar	Bo‘g‘im sindromi	UQT, RO, bo‘g‘imlar rentgeni	Infeksion kasalliklar o‘tkazganligi. Bilak-kaft va kaft bo‘g‘imlarining simmetrik shikastlanishi bilan ertalabki karaxtlik, RO kuzatilishi

			mumkin, virusli ekzantema. 4-6 haftada o‘z-o‘zidan o‘tib ketadi.
--	--	--	--

[<https://cyberleninka.ru/article/n/differentsialnaya-diagnostika-pri-porazhenii-sustavov-i-pozvonochnika>]

4. Ambulatoriya darajasida davolash taktikasi:

Umumiy tamoyillar.

Bemorlarni revmatologlar davolashi kerak.

Davolash shifokor va bemor o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka asoslangan (bemor va revmatolog o‘rtasida kelishilgan bo‘lishi kerak)

BYaQV bilan davolash imkon qadar erta, "imkoniyat oynasi" (window of opportunity) – RA ning birinchi belgilari rivojlanish paytidan birinchi 3 oy ichida boshlanishi kerak.

Davolash quyidagilarga asoslangan: faollik darajasi, yo‘ldosh kasalliklar mavjudligi, bo‘g‘imlarning struktur jaroxatlanishini avj olish tezligi va davolash xavfsizligi.

IV D	Erta RA va differensiyalanmagan artrit tashxisini qo‘yish qiyin bo‘lganda kaftlar MRTsi tavsiya etiladi
------	---

Davolash uzoq muddatli remissiya yoki kasallikning past faolligiga erishishga qaratilgan bo‘lishi kerak (dalillar darajasi 1a, tavsiya kuchi A)

IV D	Erta RA va differensiyalanmagan artrit tashxisini qo‘yish qiyin bo‘lganda kaftlar MRTsi tavsiya etiladi
------	---

Davolash samaradorligi har 1-3 oyda baholanishi kerak, agar samarasiz bo‘lsa, davolashdan 6 oydan keyin korreksiya qilinishi kerak (dalillar darajasi 2 b, tavsiya kuchi B.) RA

Davolash bemorning hayoti davomida amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Davolash NT rivojlantishi bilan kuzatilishi mumkin.

4.1. Nomedikamentoz (dori-vositalarisiz) davolash:

Yarim to‘yingan yog‘ kislotalari saqlaydigan mahsulotlardan (baliq moyi, zaytun moyi va b.) iborat muvozanatlashtirilgan parhez, ho‘l mevalar, sabzavotlar. Bunaqa parhez yallig‘lanishni susaytirib, kardiovaskulyar asoratlar xavfini kamaytiradi.

Muntazzam jismoniy faollik. Doimiy jismoniy tarbiya funksional holatni yaxshilaydi va bemorlarning ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Fizioterapiya: issiq yoki sovuq muolajalar, ultratovush, igna bilan davolash, lazerterapiyasi.

Ortopedik muolajalar – bo‘g‘imlar deformatsiyasining oldini olish va korreksiya qilish (protezlar, stekalar, ortopedik poyafzallar).

Kasallikning kuchayishini keltirib chiqaradigan omillardan saqlanish (interkurent infeksiyalar, stress, chekish, spirtli ichimliklar va boshqalar.).

Og‘iz bo‘shlig‘i gigienasiga rioya qilish.

Chekish, semizlik va paradontit - RA rivojlanishi va avj olishi uchun xavf omillari bo‘lib, BYaQV va TNF- α ingibitorlari bilan davolash samaradorligini kamaytiradi va o‘lim darajasini, shu jumladan yurak qon tomir kasalliklaridan o‘limni oshiradi.

Jismoniy mashqlar :

Davolovchi jismoniy tarbiya RA tashxisi qo'yilgan vaqtdan boshlab barcha bemorlar uchun avval instruktor rahbarligida, so'ng uy sharoitida kasbiy ko'mak yordamida kuch mashqlari, barmoqlar harakatlari va motorikasini yaxshilovchi mashqlar bilan birgalikda bajarilishi tavsiya etiladi.

Dalillarning ishonchlilik darajasi - Ia, tavsiyalarning ishonchlilik darajasi - B

Funksional chegaralanishi bo'lgan RA bilan bemorlarga ergoterapiya (ET) tavsiya qilinadi.

Dalillarning ishonchlilik darajasi - Ia, tavsiyalarning ishonchlilik darajasi – B

Revmatoid artritli bemor o'z-o'ziga xizmat qilish faoliyatini saqlab qolishi uchun eng foydali bo'lgan maxsus harakatlarni o'rganishi kerak. Qo'l bo'g'imlariga alohida e'tibor berish kerak. Qo'llarning tashqariga og'ishi bilan harakatlardan saqlanishi kerak. Qo'l kaftining o'ynoqi ulnar deviasiyasi yoki unga moyilligi bilan bemor qo'llarning to'g'ri o'qini tiklash uchun sharoit yaratishi kerak: - qo'l o'qini tiklash – kaftni "qirg'og'i bilan" yoki pastga (kaftni tashqariga og'dirmasdan) ushlab turish qoidasi; - qo'lning ko'ndalang va bo'ylama gumbazini asrash; - kaftni tinch holatda to'g'ri tutish – kaft tennis koptokchasida, silindrsimon, konussimon yuzada turadi.

Jismoniy terapiya mashqlari uchun qarshi ko'rsatmalarni hisobga olish kerak.

Ortopedik tavsiyalar :

Xorijiy adabiyotlarda «occupational therapy- mehnat bilan davolash» «ergoterapiya» iborasi ekvivalenti bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bo'g'imlarni muhofaza qilish va quvvatni saqlash,

barmoqlarning mayda motorikalarini mashq qilish, harakat ko'nikmalarini o'rgatish, to'g'ri funksional stereotipni shakllanitirish, mehnat amaliyotlarini bajarish,

yordamchi moslamalar, shina va protezlardan foydalanish,

o'z-o'ziga xizmatni yengillashtiruvchi turmush anjomlari, qo'shimcha jihozlar bilan ishlash, uy va kasbiy mehnatni bajarish.

Fizioterapevtik tavsiyalar :

Reabilitatsiya dasturiga kasbiy terapiya, aerobik, kuch, guruh va individual davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya (elektr, magnit, lazer, balneo, peloid, krioterapiya, akupunktura, ultratovush), ortotika, bemorlar uchun ta'lim dasturlari va psixologik tuzatish kiradi

[<https://naukaru.ru/upload/b7e930210942d4c643fe9ad2bf10a767/files/2da918a1113bf9cd9a81ac15387298fa.pdf>]

4.2. Medikamentoz (dori-vositalari bilan) davolash:

RAning davosi bemorga individual yondashib, bemorning xohish va istaklariga, xavf omillari (yoshi, jinsi, yondosh patologiyasi, semizlik, stress, infeksiya, zararli odatlar va irsiy omillar), yallig'lanish belgilarining borligi, og'riq darajasi, kundalik faoliyatlarning chegaralanganligi va xayot sifatiga mos xolatda olib borilishi lozim.

Quyidagi dori vositalari RA ni davolashda asosiy o'rin tutadi:

Sintetik bazis yallig'lanishga qarshi standart vositalar

Bazis gen-injener biologik vositalar

Glyukokortikosteroidlar

Qo'shimcha dori vositalari

